



Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
26 сентябрь
№ 39 (980)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

МАВСУМГА МУНОСИБ ҲОЗИРЛИК



Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев бошчилигида Сурхондарё вилоятида куз-қиш мавсумига тайёргарлик юзасидан муҳокама бўлиб ўтди.

Мазкур тадбир давомида вилоятда энергетика ва коммунал соҳа объектларининг 2024 – 2025 йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик

кўриш, мавсум давомида иссиқлик ва энергетика тармоқларини барқарор ишлашини таъминлаш борасида муҳим фикрлар баён этилди. Содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ва йирик аварияларнинг олдини олиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этиш ишларини жадаллаштириш зарурлиги қайд этилди. Маҳалла фуқаролар йиғин-

ларида, хизмат кўрсатувчи ташкилотларда аҳоли ва иқтисодий тармоқларига электр энергияси, газ ресурсларини етказиб беришда содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, аҳолини юзага келган вазиятлардан хабардор этиш, жабрланганларга тиббий ёрдам кўрсатиш, аҳолини хавфсиз ҳудудларга тезкорлик билан кўчириш ишларини ташкиллаштириш ва

аҳолини тўғри ҳаракат қилишга ўргатишга қаратилган тавсиялар берилди.

Тошқин сувлари ва сел оқимларини хавф-хатарсиз ўтказиб юборишни таъминлаш, қор кўчиши ва ер кўчкиси ҳодисалари хавфини камайтириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар муҳокама қилинди.

Таъкидланганидек, кўкда пайдо бўлаётган оқпар булутлар кузнинг кўёшли кунлари ғанимат эканлигини эсга солаётгандек. Зеро, бу она-табиатнинг остонада қаҳратон қиш кутиб турганига бир ишорасидир. Остонада табиатнинг инжиқ мавсуми эшик қоқиб турибди. Унинг ҳар бир кунини – синов. Қиш фаслини беталафот ўтказиш эса унинг “имтиҳон”ларига қанчалик пухта ҳозирлик кўрилганига боғлиқ. Бунини нафақат мутасадди идоралар масъуллари, балки ҳар биримиз бир зум бўлсада, ёддан чиқармаслигимиз, тадориқни пухта қилишимиз зарур.

Шунингдек, одамлар кўп йиғилдиган савдо марказлари ва ижтимоий-иқтисодий соҳа объектларида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этишга қаратилган муҳим топшириқлар берилди.

ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

ФВВ ходимлари Тожикистон Республикаси Душанбе шаҳрида ташкил этилган “Ўзбекистон ва Тожикистон Республикаларида кимёвий хавфсизликни таъминлаш борасида идоралараро ҳамкорликни кучайтириш” мавзусидаги минтақавий семинарда қатнашди.

Анжуман давомида кимёвий моддалар оқибатида юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ҳақида гапирилди. Уларнинг олдини олишда зарур бўладиган хавфсизлик чоралари хусусида тўхталиб ўтилди. Кимёвий моддалар таъсирида содир бўлган бахтсиз ҳодисаларда химия воситаларининг ишлатилиши ва химия манзиллари борасида сўз юритилди. Қайд этилганидек, Ўзбекистонда аҳоли ҳамда ҳудудларни турли табиий ва техноген тусдаги фавқулодда вазиятлардан самарали муҳофаза қилиш, инсонларнинг тинч ҳамда осойишта ҳаёт кечиришини таъминлаш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Шу мақсадда мустақам қонунчилик базаси яратилиб, фуқаро муҳофазасини давр талабларига мос равишда такомиллаштириб

борилмоқда. Бундан ташқари, фавқулодда вазиятлар мониторингини юритиш, башоратлаш ва зарур профилактика ишларини амалга ошириш чора-тадбирлари изчиллик билан амалга оширилмоқда. Хавфли кимёвий моддаларни аниқлаш, улар билан боғлиқ фавқулодда вазиятлар содир бўлганда зарарсизлантириш ҳамда кимёвий хавфсизлик бўйича билимларни оширишда бу каби тадбирларнинг аҳамияти бекиёсдир.

Томонларни табиий офатларнинг олдини олиш, зарарни камайтириш, оқибатларини бартараф этиш, саноат хавфсизлигини назорат қилиш ва кенг қамровли авария-қутқарув операциялари каби соҳалардаги ҳамкорлиги кўриб чиқилди. Шунингдек, амалий ҳамкорликни чуқурлаштириш бўйича янги таклифлар ҳам илгари сурилди. Қолаверса, Ўзбекистонда кейинги йилларда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш, хорижий давлатлар билан дўстона ҳамда ўзаро манфаатли муносабатларни ривожлантириш борасида муҳим натижаларга эришилаётгани қайд этилди. Замонавий талаблар даражасидаги мутахассислар тайёрлашда хорижий илғор тажрибаларини ўрганиш



ва бу борада ҳамкорликни йўлга қўйиш масалалари ҳам эътироф этилди.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, мамлакатимизда охириги йилларда очик ташқи сиёсатнинг фаоллашуви хорижий мамлакатлар билан кўп қиррали ва ўзаро манфаатли ҳамкорликни мустақамланишига муҳим пойдевор бўлиб хизмат қилмоқда, жумладан, ўзбек-тожик муносабатларида улкан ижобий ўзгаришлар содир бўлмоқда. Сўнгги йилларда минтақа давлатлари ўртасида ўзаро

ишонч тамойили асосида йўлга қўйилган дипломатик муносабат натижасида яхши қўшинчилик ришталари мустақамланди.

Бугун мамлакатимиз халқаро ҳамжамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида таълим, соғлиқни сақлаш, тадбиркорлик, фуқаролик жамиятини ривожлантириш ҳамда хавфсизликни таъминлаш соҳасида улкан марраларни эгалламоқда.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ЁШЛАР БИЛАН

Боёвут тумани ҳокимлиги, Гулистон ҳарбий прокуратураси ва Сирдарё вилояти Фавқуллода вазиятлар бошқармаси ҳамкорлигида ёшлар билан учрашув ташкил этилди.

Тадбирда мамлакатимизда ёшлар учун яратилган кенг қамровли имконият ва имтиёзлар тўғрисида сўз юритилди.

Учрашувда ёшлар томонидан берилган саволларга мутасаддилар томонидан атрофлича жавоб берилди.

Шунингдек, вилоят Миллий гвардия бошқармасида

профилактик тадбир ўтказилди.

Мулоқотда йўл-транспорт ҳодисаларининг аянчли оқибатлари, йўл ҳаракати қоидаларини бузганлик учун жавобгарлик асослари ҳақида тушунтиришлар берилди.

Шу билан бирга, юзага келиши мумкин бўлган фавқуллода вазиятларнинг олдини олиш юзасидан амалий машғулот бўлиб ўтди.

Шоҳруҳ МУҲАММЕДЖАНОВ,
Гулистон ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ФАОЛИЯТ

Термиз ҳарбий прокуратураси томонидан таълим ташкилотларида мунтазам равишда машғулотлар ўтказиб келинмоқда.

Хусусан, ДХХ Чегара қўшинлари "Ёш чегарачилар" ҳарбий-академик лицейи ўқувчилари иштирокида "Ватанпарварлик — маънавий қадрият" мавзусида "Прокурорлик соати" ўтказилди.

Мулоқотда ватанпарварлик, фидойилик, ҳалоллик, Ватанга хизмат, меҳнатсеварлик тушунчалари ҳақида суҳбат қурилиб, муваффақиятга эришиш йўлида амал қилиниши лозим бўлган ҳаётий тавсиялар берилди. Машғу-

лот қизгин савол-жавобларга бой бўлди.

Бундан ташқари, Бойсун туманида оммавий сайёр қабул ўтказилди.

Унда тегишли соҳа мутахассислари жалб қилинган ҳолда ҳарбий хизматчилар, ходимлар ва уларнинг оила аъзолари тингланди.

Жараёнда мурожаатларнинг кўпчилиги юзасидан ҳуқуқий тушунтириш берилиб, кўриб чиқиш муддат талаб этадиганлари назоратга олинди.

Аъзам АЛМАРДОНОВ,
Термиз ҳарбий прокурорининг ўринбосари, адлия подполковниги.

ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ

"Қамчиқ" Махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармасида Тошкент ҳарбий прокурори ёрдамчиси адлия майори Отабек Минглиев ва бошқарма шахсий таркиби иштирокида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида сўнгги вақтларда амалга оширилган ишлар таҳлили, жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича давра суҳбати ўтказилди.

Тадбирда бошқарма бошлиғи ўринбосарлари бугунги

кунда кенг тарқалган ҳуқуқбузарликлар ҳақида тўхталиб, барчани огоҳликка чақирди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчи ва ходимларнинг маънавиятини юксалтириш, уларда юксак аъёналарга ҳурмат туйғусини шакллантириш, ҳуқуқий саводхонлиги, билим ва кўникмаларини янада мустаҳкамлаш бўйича тавсиялар берди.

Б.ИСРОИЛОВ,
"Қамчиқ" МҚЁҚБ ходими, катта сержант.



Мудофаа вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида Қуролли Кучлар ҳарбий хизматчилари ва ходимларининг ҳуқуқий маданиятини янада юксалтириш масалаларига бағишланган республика илмий-амалий конференцияси ташкил этилди.

ДОЛЗАРБ МАВЗУГА БАҒИШЛАНДИ

Унда Республика ҳарбий суди, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, барча куч тузилмалари масъуллари, илмий ҳамжамият ва оммавий ахборот воситалари вакиллари иштирок этди.

Видеоконференцалоқа тарзида ўтган анжуманда Президентимиз, Қуролли Кучлар Олий Бош қўмондони томонидан Хавфсизлик кенгашининг жорий йил 12 январдаги кенгайтирилган йиғилишида белгилаб берилган топшириқлар ва вазифалар ижроси доирасида амалга оширилган чора-тадбирлар натижаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Муҳокамаларда ҳарбий хизматчилар, ходимлар ва уларнинг оила аъзоларининг ҳуқуқ

ва қонуний манфаатларини тўлақонли рўёбга чиқариш йўналишларидаги чора-тадбирлар натижалари кўриб чиқилди.

Шу билан бирга, муҳокама қилинган масалаларда аниқ ва илмий асосланган тавсиялар, тадқиқот натижалари хулосаларига кўра ишлаб чиқилган таклифлар билдирилиб, уларни келгусида амалга ошириш бўйича тегишли чора-тадбирлар белгилаб олинди.

Акмал АБДУРАҲМОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАНДИ

Урганч ҳарбий прокуратураси томонидан Миллий гвардия Хоразм вилояти бўйича қўриқлаш бошқармаси шахсий таркиби иштирокида куз-қиш мавсумига тайёргарлик, энергия ресурсларидан самарали фойдаланиш юзасидан мулоқот ўтказилди.

Тадбирда сўз олган мутахассислар томонидан энергия ресурсларидан самарали фойдаланиш, талабга жавоб бермайдиган газ ва электр ускуналарини тежамкорига алмаштириш ҳамда энергия самарадор ускуналар борасида тушунчалар берилди.

Шунингдек, масъуллар ва шахсий таркиб иштирокида белгиланган объектларда энергия тежамкорлигига риоя қилинишини таъминлаш бўйича амалий тадбирларни жадал давом эттириш юзасидан ҳамкорликдаги келгуси вазифалар белгилаб олинди.

Азиз АЛИМҚУЛОВ,
Урганч ҳарбий прокуратураси катта ёрдамчиси, адлия капитани.

Самарқанд вилоятининг олис ҳудудида жойлашган Пайариқ туманидаги 39-сонли умумтаълим мактабида "Прокурорлик соати" ўтказилди.

МАРОҚЛИ МУЛОҚОТ

Тадбирда ватанпарварлик, она-ватанга садоқат, ҳуқуқий саводхонлик, Қуролли Кучлар тизимида олиб борилаётган ислохотлар, ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларига яратилган имтиёзлар, ёшлар учун жорий қилинган имкониятлар ва уларнинг қонунчиликдаги ҳуқуқий асослари тўғрисида тушунтиришлар бериб ўтилди.

Шунингдек, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Заҳриддин Муҳаммад Бобур сингари буюк бобокалонларимизнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида қизгин суҳбатлар қурилди.

Мулоқот савол-жавобларга бой бўлди.

Руслан ЛАТИПОВ,
Самарқанд ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Ўзбекистон Республикаси "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонуннинг 3-моддасида асосий тушунчалар берилган бўлиб, унда коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ва манфаатлар тўқнашувига доир тушунчаларга таъриф берилган, яъни коррупция — шахсининг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини кўзлаб, моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишидир.

Мазкур қонун ўз навбатида, фуқароларга коррупция ва унга оид ҳуқуқбузарликнинг нима эканлиги ва уларнинг салбий иллатлари ҳақида маълумот беради. Қонуннинг 5-моддасида эса коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари кўрсатиб ўтилган бўлиб, улар аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирларни амалга ошириш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, уларнинг оқибатларини, унга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш, кор-

рупцияга оид ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминлашдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига жавобгарлик белгиланган қуйидаги ижтимоий хавфли қилмишлар коррупциявий жиноятлар ҳисобланади:

масалан, ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-тароҳ қилиш, жиноий йўл билан топилган мулкни олиш ёки ўтказиш, бюджет интизомини бузиш, ҳокимият ёки мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш, ҳокимият ёки мансаб ваколати доирасидан четга чиқиш, ҳокимият ҳаракатсизлиги, пора олиш, пора бериш, пора олиш-беришда воситачилик қилиш, хизматчини пора эвазига оғдириш, товламачилик йўли билан ҳақ беришни талаб қилиш, қийноққа солиш ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматни камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллаш, тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралаштириш, ёлғон гувоҳлик бериш, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш ва ҳоказолар.

Радмир ЧИМБЕРГЕНОВ,
Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бош инспектори, подполковник.

ХОНАТЛАСИМИЗ – ҒУРУРИМИЗ

Хонатлас – неча юз йиллик тарихга эга матоларимиздан. Ўзлигимизни, ўзбеклигимизни эслатиб турувчи бу матодан тикилган либослар аёлларимизга, қизларимизга ўзгача жозиба, кўрк, чирой бағишлайди. Қизларимиздаги ҳаё, ибодат билан ўзаро уйғунлашиб, таърифига сўз ожиз манзара ҳосил қилади. Бу бежиз эмас. Ундаги ёрқин ранглар, жилвакор нақшлар она-табиатимиздан нусха олиб яратилган. Инсон эса табиатнинг ажралмас бир бўлагидир.

Миллий қадриятларимиздан саналган бу матонинг “Марғилон атласи”, “Қора атлас”, “Барги карам”, “Намозшомгул”, “Қора кўзим” каби нусхалари машҳур саналади. Улар нафақат гўзал ва жозибатор, балки

киши саломатлиги учун ҳам фойдалидир. Чунки атласу адрасларимиз табиий ипақдан тайёрланади. Табиий ранглар воситасида бўялади.

Юртимиз бўйлаб ташкил этилган “Хонатлас” фестивали доирасида уюштирилган маданий-маърифий тадбирларда “Қамчиқ” Махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармасида фаолият олиб бораётган барча хотин-қизлар ҳам фаол иштирок этишди. Ўзаро мулоқотлар чоғида миллий қадриятларимизнинг бир бўлаги саналган атласни асраб-авайлаш, ўзбекона кийиниш маданияти ҳақида сўз юритилди.

Ш.АБДУСАТТОВА,
“Қамчиқ” МҚЁҚБ бош мутахассиси.

“НУРЛИ МАСКАН” ДА ...

Фарғона вилояти ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчилари томонидан Фарғона шаҳар алоҳида таълимга эҳтиёжи бўлган (кўзи ожиз ва заиф кўрувчи) болалар учун ихтисослаштирилган 1-“Нурли маскан” мактаб-интернатида семинар ўтказилди.

Унда ҲФХЎМ ўқитувчилари томонидан иштирокчиларга табиий ҳодисалар ичида энг даҳшатлиси, табиатга, жамиятга ва экологик вазиятга кўп зарар етказувчи, катта ҳудудларда

содир бўладигани зилзила тўғрисида тушунчалар бериб ўтилди.

Семинарда Фуқаро муҳофазаси институти томонидан тайёрланган “Жисмоний имконияти чекланган шахсларни зилзилада ҳаракат қилишга тайёрлаш” бўйича кўзи ожизлар учун брайл ёзувидаги ўқув-услубий қўлланмалар ҳамда электрон қўлланмалар (видеомашғулотлар) тақдим этилди.

С.АБДУРАҲМОнова,
Фарғона вилояти ФВБ ҲФХЎМ ўқитувчиси.

УЧРАШУВ

Қарши шаҳар Муסיқа ва санъат мактабида вилоят ФВБ масъуллари иштирокида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви ташкиллаштирилди.

Унда сўз олганлар ўқувчи-ёшларга қутқарувчилик шарафли ва ма-

шаққатли касб эканлиги, қутқарувчи ўз хизмат вазифаси давомида нималарга эътибор қилиш кераклиги, қандай билим ва кўникмаларга эга бўлиши, инсонпарварлик, мардлик ва жасорат каби фазилатларга қандай эришилиши тўғрисида сўзлаб бердилар.

Тадбир якунида, бошқарма бошлиғи ушбу ижод мактаб жамоасига эсдалик учун китоблар тақдим этди.

Ёшлар мутахассислардан ўзларини қизиқтирган саволларига атрофлича жавоб олдилар.

Т.ТУРСУНБОЕВ
Қарши шаҳар ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, катта лейтенант.



ТАВСИЯЛАР БЕРИЛДИ

Наманган вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари Б.Раджабов ҳамда Уйчи тумани Ёшлар агентлиги раҳбари М.Зиятовлар иштирокида 35-умумтаълим мактабида ёшлар билан учрашув бўлиб ўтди.

Мулоқот давомида ёшлар тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш, ФВБга ишга кириш масалаларида ёрдам сўраб мурожаат қилдилар. Мурожаатларнинг баъзилари ўрнида ҳал этилган бўлса, айримларига тушунтиришлар берилди. Қолган муро-

жаатлар ҳал этилиши учун мутасаддиларга йўналтирилди.

Шоира ДАВЛЯТОВА,
Уйчи тумани ФВ бўлими инспектори, кичик сержант.



ОИЛА – МУҚАДДАС ДАРҒОҲ



муҳофаза қилувчи ёнғин-қутқарув қисмларининг барча аёл ҳарбий хизматчилари иштирокида “Оила – муқаддас дарғоҳ” мавзусида кенгайтирилган учрашув ташкил этилди.

Учрашувда вилоят хотин-қизлар жамоат кенгаши аъзоси Навоий шаҳар халқ депутати вакиллари, вилоят Аёллар реабилитация ва маслаҳат маркази ходимлари ҳамда вилоят ИИБ ЖХХ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бошқармаси бошлиғининг хотин-қизлар масалалари вакиллари иштирок этдилар.

Маъруфжон ҲАЙИТОВ,
НКМК АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида ЁХТТЭ маркази кичик инспектори, катта сержант.

НКМК АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази бошлиғи полковник Хайрулло Зоиров ташаббуси билан марказ мажлислар залида марказ ва унинг қўйи тизимларининг Учқудук, Зарафшон ва кўшни Самарқанд вилоятининг Қўшрабод ва Нуробод ҳамда Жиззах вилояти Ғаллаорол туманидаги комбинатга қарашли объектларни ёнғиндан

ДАВРА СУҲБАТИ

ФВВ Академиясида ҳарбий хизматчилар ва хизматчилар ҳамда курсантлар иштирокида “Спорт соҳасида ёшларнинг ўрни” мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди.

Унда “Спорт” газетаси таҳририяти бош муҳарири, Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети профессори Мирзаҳаким Тўхтамирзаев, ФВВ Академияси бошлиғи генерал-майор Равшан Хайдаров, Академия фахрийлари, профессор-ўқитувчилари, ҳарбий хизматчилари ҳамда курсантлари иштирок этдилар.

Тадбир давомида Академия Оркестр жамоаси томонидан моҳирона



ижро этилган турли куй-қўшиқлар қатнашчиларда катта тассиротлар қолдирди.

Якунида ташриф буюрган меҳмонларга Академия раҳбариятининг ташаккурнома ва эсдалик совғалари топширилди.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.

ТИЗИМЛИ ИШЛАР

Наманган шаҳридаги “Баркамол авлод” спорт мажмуасида бўлиб ўтган тадбирда вилоят ҳокимлиги, ФВБ, Адлия бошқармаси ва вилоятнинг бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар вакиллари иштирок этди.

Тадбирга Наманган шаҳар ва барча туманларнинг 2-секторидаги оталиққа олинган ёшлари жалб этилиб, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, касбга қизиқтириш мақсадида ҳар бир бошқармалар томонидан амалий ва ёшлар томонидан турли кўргазмали чиқишлар тақдим этилди.

Шунингдек, бошқарма қутқарувчилари ўзларининг кунлик хизматларидан келиб чиқиб, турли хил қутқарув жараёнлари ҳамда ёнғин ўчириш амалий спортининг турлари бўйича ҳаракатларини амалда кўрсатишди. Ёшлар ёнғин-қутқарув автомашинаси ва ундаги қутқарув асбоб-анжомлари билан яқиндан танишдилар.

Тадбир сўнггида иштирокчилар учун турли ҳуқуқий савол-жавоблар ва учрашувлар ҳам ташкил этилди.

Ойбек ТОШТЕМИРОВ,
Наманган вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, полковник.

КИТОБЛАР ТОПШИРИЛДИ

Хоразм вилояти Урганч шаҳридаги кўзи ожизлар кутубхонаси ҳамда алоҳида таълимга эҳтиёжи бўлган заиф эшитувчи болалар учун ихтисослаштирилган 32-мактаб-интернатида вилоят ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ходимлари томонидан “Фавқулодда вазиятларда, хусусан зилзилада тўғри ҳаракатланиш қоидалари” мавзусида ўқув семинари ўтказилди.

Унда иштирокчиларни зилзилада ҳаракатланишга тайёрлашда назарий билимларини янада ошириш, инновацион технологияларни уйғунлаштирган ҳолда масофадан ўқитиш услублари ҳамда замонавий педагогик ва рақам-

ли технологиялар асосида яратилган махсус электрон таълим платформа орқали тайёргарликдан ўтказиш бўйича тушунтиришлар берилиб, зилзилада ҳаракатланишга тайёрлаш бўйича амалий кўникмалар мустаҳкамланди.

Шунингдек, ўқув семинар жараёнида Фуқаро муҳофазаси институти томонидан тайёрланган электрон қўлланмалар, брайл ёзувидаги китоблар ва эслатмалар кутубхонага топширилди.

Рустам АТАДЖАНОВ,
Хоразм вилояти ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчиси.

NE'MATNI ASRAYLIK!

Paxta xomashyosini tabiiy quritish maydonlari turar-joy va jamoat binolaridan hamda ta'mirlash sexlaridan kamida 150 m, yuqori va past kuchlanishli elektr liniyalari tayanchlaridan 1,5 m balandligiga teng masofada joylashtirilishi, 50 metr kubdan kam bo'lmagan miqdorda suv zaxirasi bilan ta'minlanishi zarur.

Traktorlar, avtomobillar, paxta terish mashinalarini to'xtatib turish, ularni ta'mirlash, moylash va yonilg'i quyish ishlari paxta xomashyosini

tabiiy quritish maydonlaridan kamida 50 metr oraliq masofada amalga oshirilishi kerak. Paxta g'aramlarini titish davrida paxta tashuvchi mashinalar, mexanizmlar va avtopoyezdlar guruhlarini 30 metr oraliq masofani saqlagan holatda joylashtirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga ham amal qilish nafaqat soha mutaxassislarini, balki har bir terim jarayoni ishtirokchisining muhim vazifasi sanaladi.

A.JOVLIYEV,
Surxondaryo viloyati FVB
Sherobod tumani FV bo'limi
boshlig'i, mayor.

DOVONDAGI YANGILIK

Hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda "Qamchiq" dovondagi bunday zamonaviy LED ekranlardan foydalanish, LED ekranlar orqali "Qamchiq" yagona navbatchi-dispatcherlik xizmati, monitoring axborot tizimining kuza-tuv kameralarini onlayn tarzda uzatish imkoniyatini yaratadi.



Dovon orqali harakatlan-gan haydovchi va yo'lovchilar o'rnatilishi rejalashtirilgan mazkur elektron axborot tablo orqali uzatiladigan ma'lumotlar, videolavhalar, dovondagi ob-havo ma'lumotlaridan ogoh bo'lib borishlari, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish-

lari mumkin. "Qamchiq" MQYQB BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot dasturi va "O'zbekistondagi jamoalarning iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan tabiiy xavflarga chidamliligini oshirish uchun ogohlantirishning kompleks tizimini takomillashtirish" chora-tadbirlar rejasiga asosan 2 dona elektron axborot tablosi beg'araz yetkazib berilgan edi.

Mazkur elektron axborot tablolarining o'rnatish va ishga tushirish bo'yicha birinchi bosqichda dovondan o'tgan A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining "Toshkent-Vodiy" yo'nalishi 212,9 kmga o'rnatilib, ikkinchi bosqichda avtomobil yo'lining 273,5 km "Vodiy-Toshkent" yo'nalishiga o'rnatish ishlari yakunlanib, dovon bo'ylab o'tgan avtomobil yo'lining holati to'g'risida haydovchi va yo'lovchilarni ogohlantirish hamda profilaktik targ'ibot materiallari qo'yib borilmoqda.

A.QUDRATOV,
"Qamchiq" MQYQB bo'limi
boshlig'i, kichik serjant.

YONG'INGA QARSHI

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan qurilishlardagi ishchi-xodimlar texnika qoidalariga rioya qilgan holda maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi, payvandlash ishlarini maxsus guvohnomaga ega bo'lgan ishchilar olib borishi kerak.

Qurilish maydonlarini yong'inga qarshi qalqon hamda birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlash, no-soz holdagi elektr tarmoqlaridan, nostandart elektr isitish moslamalaridan foydalanmaslik lozim.

To'ldirilgan ballonlar tik holda saqlanib, ular maxsus kataklar yoki uyalariga o'rnatiladi va kamar, zanjir yoki qisqichlar bilan mahkamlanadi. Kislorod ballonlaridan foydalanish, ularni saqlash va ko'chirishda ballon hamda shlanglar moy va moyli materiallarga tegib ketmasligi choralari ko'rilishi va shu kabi bir qator xavfsizlik choralari rioya qilinishi g'oyat muhimdir.

M.ISROYILOV,
Surxondaryo viloyati FVB
Sherobod tumani FV bo'limi
P va NB katta inspektori,
leytenant.

USTOZ - TABARRUK ZOT

Yurtimizda har yili 1-oktyabr sanasi O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida nishonlanadi.

Ushbu sana munosabati bilan yurtboshimizning tabriklari yo'llanib, bir guruh fidoyi ustoz va murabbiylar davlat mukofotlari bilan taqdirlanadilar. Albatta, mehnatlari buyuk, o'zlari esa shogirdlar davrasida hamisha suyuq hisoblangan ustozlar bugun jamiyatimizning qator jabhalarida ko'plab topiladi.

Jumladan, bugungi kunda FVV Akademiyasida ham ko'plab professor-o'qituvchilar bo'lajak xaloskorlarga soha sirlaridan saboq berib, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlarni aholi va hududlarni yong'inlar hamda boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdek sharaflari xizmatga tayyorlab, ezgu maqsad va vazifalar sari ruhlantirib kelmoqdalar.

Ustoz har doim ehtimom va ulug'lashga munosib bo'lgan zotdir. Bunga tarixdan misollar juda ko'p. Buyuk Sohibqiron, jahongir hazrat Amir Temur bobomiz dunyoda markazlashgan davlat tuzgan ulug' davlat rahbari va sarkardalardan hisoblanadi. Dunyoviy va diniy bilim egalardan saboq olganlarini doim ta'kidlab o'tganlar. Aytishlaricha, umrlarining oxirlarida shunday vasiyat qilgan ekanlar: "Men dunyodan o'tganimda qabrimni ustozlarimning qabrlaridan yarim gaz chuqurroq kavlanglarki, yotgan joyimda ham ustozlarim yelkamda bo'lishsin!".

Biz ustozlar qadrini, haqqi-hurmatini dunyoni boshqargan podshohlaru ilm fidoyilari bo'lgan olimlardan o'rganmog'imiz darkor. Xalqimizda, ustozini rozi qilgan shogird baraka topadi, degan purhikmat naql ham bor.

Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz shuning uchun ham:

Shogird agar shayxulislom, agar qozidur,

Agar ustod andin rozidur – Tengri rozidur! – deya lutf etganlar.

Shunday ekan, barchamiz hayotda o'z o'rnimizni topishimizda bizga ustoz-murabbiylik qilgan insonlarni qadrlashimiz, ularning hurmatini o'rniga qo'yishimiz, har doim ularni mushkulini oson, og'irini yengil qilish payidan bo'lishimiz lozim. Shunday ekan, ularning yaxshiliklariga oz bo'lsada javob qaytara olgan bo'lamiz. Ota-onamiz oldidagi qarzimizni aslo uzib bo'lmaganidek, ustozning bizga bergan ta'lim-tarbiya haqqini yuz xazinayu dunyo boyliklari bilan ham ado eta olmaymiz.

Baxshulla Jaxonqulov
FVV Akademiyasi axborot
xizmati boshlig'i

SEMINAR

Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi viloyat FVBga qarashli 45-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida "Favqulodda vaziyatlarda, xususan zilzilada to'g'ri harakatlanish qoidalari" mavzusida seminar bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchi-pedagoglari tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, zilzila vaqtida nimalarga e'tibor berish kerakligi, zilzilaga qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligi hamda zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish tartibi yuzasidan tushunchalar hamda yo'riqnomalar berildi.

Shuningdek, ishtirokchilarga yong'in va qidiruv-qutqaruv guruhlarining avtomashinalari, un-



dagi qutqaruv asbob-anjomlarining ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ishtirokchilarning mavzu yuzasida qiziqtirgan savollariga mutaxassislar tomonidan javob berildi.

Abdug'ani XADJAYEV,
Namangan viloyati FVB HFXO'M katta
o'qituvchisi.

Xurshid DUSTMATOV,
Kosonsoy tumani FV bo'limi inspektori,
leytenant.

ANJUMAN

Samarqand viloyati Matbuot uyida "Kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish bo'yicha viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.



Unda viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari Umid Axrorov ishtirok etib, favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan viloyatda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar hamda fuqarolar tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan xavfsizlik qoidalari bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Anjuman davomida jurnalist va blogerlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga aniq va batafsil javob oldilar.

Ilhomjon BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB axborot xizmati
boshlig'i, kapitan.

FVV Akademiyasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda akademiya hamkorligida "Men ham harbiy bo'laman", deb nomlangan adabiy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

AKADEMIYADA TADBIR

Tadbirda FVV Akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi boshqarma boshlig'i To'xtasin Arslonov, "Men ham harbiy bo'laman" kitobi muallifi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyati bo'limi rahbari Begzod Abdirimov, Ma'rifat targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori Mahfuza Yuldasheva, "Do'stlik" ordeni sohibi, taniqli shoir Bobur Bobomurod, Ma'rifat targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, xonanda Faxriddin Xolnazarov, akademiya professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilar, kursantlar ishtirok etdilar.

Tadbirni general-mayor Ravshan Haydarov ochib, mazkur kitob-albom milliy tariximiz, ajdodlarimizning jangovar ruhi, Vatanga muhabbat, milliy davlatchiligimiz bosib o'tgan shonli yo'l haqidagi qimmatli ma'lumotlar jamlangani, shu bilan birga, milliy armiyamizning rivojlanish jarayonlarini yaxlit ifoda etishi, tarixiy fotomateriallar bilan boyitilgani bilan ahamiyatli ekanligini ta'kidladi.

Tadbir Akademiya orkestr xonandalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturiga ulanib ketdi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, mayor.

O'RGANISH

Namangan viloyati FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan viloyatning Uychi va Uchq'org'on tumanlari hududidagi paxta zavod va paxta qabul qilish punktlarini mavsumga tayyorgarligi hamda yong'in qarg'ish holati o'rganildi. Aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etilib, korxonalar rahbarlari hamda ishchi-xizmatchilariga yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda dastlabki harakatlari

yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.



MASKANDA MASHQ

Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari rahbarligida Qarshi shahridagi "Sulton tex group" kichik korxonasiga qarashli paxta qabul qilish maskanida yong'in o'chirish amaliy mashg'uloti o'tkazildi.

yong'in xavfsizligi holati yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining 1-o'rinbosari — Shtab boshlig'i, podpolkovnik.

Jarayonda, hamkorlikdagi xizmatlarning sodir bo'lgan yong'inni zudlik bilan bartaraf etish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, fuqarolarni evakuatsiya qilish va turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Qolaversa, mutaxassislar tomonidan korxonalar mas'ullariga obyektning



VATANGA SADOQAT HISSI

Buxoro viloyati FVB rahbariyati tomonidan Romitan, Shofirkon, Jondor, G'ijduvon, Buxoro va Olot tumanlarida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi. Uchrashuv davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan murojaat qilib, ularga to'liq javob oldilar.

Har bir yoshning qalbidan Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish istagi kuchaydi.

M.PIRQULOV,
Buxoro viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

BETALAFOT O'TKAZAYLIK!

Surxondaryo viloyati FVB Sherobod tumani FV bo'limi tomonidan tegishli xizmatlar hamkorligida kuz-qish mavsumida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi profilaktikasi bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmog'ada.

Yong'inlar va ularning kelib chiqishi sabablari tahlilidan kelib chiqib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko'rilmog'ada. Jumladan, aholiga tashqi himoya qobiqlari,

shikastlangan elektr sim va kabellardan foydalanmaslik, isitish mavsumi boshlanishidan avval isitish pechlarining dudburonlarini tozalash, sozlash va ularning qoida talablari asosida o'rnatilishi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi maxsus tashkilotlarga murojaat qilish lozimligi tushuntirilib, zarur tavsiyalar berilmog'ada.

K.Berdimurodov,
Surxondaryo viloyati FVB Sherobod tumani FV bo'limi P va NB inspektori, katta leytenant.

TAJRIBA VA MOHIRLIK

Urganch shahridagi "Yoshlik" sport majmuasida viloyat FVB va uning hududiy bo'limlari xodimlari o'rtasida sportning kurash va qo'l jangi turlari bo'yicha viloyat FVB boshlig'i kubogi musobaqalari o'tkazildi.

Qiziqarli va murossasiz bahslarga boy o'tgan musobaqada umumjamoahisobida "Uzavto motors" obyekti binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi 1-o'rinni egallagan bo'lsa, 2-o'rinni Qo'shko'pir tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi hamda 3-o'rinni Urganch shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi jamoalari

qo'lga kiritdi. Kurash bo'yicha esa Yong'in-qutqaruv otryadi 1-o'rinni egallagan bo'lsa, 2-o'rinni "Uzavto motors" obyekti binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi hamda 3-o'rinni Qo'shko'pir tumani FV bo'limi jamoalari egallashdi.

Musobaqa so'nggida barcha g'olib va sovrindorlarga boshqarma rahbariyatining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Bobomurod AVAZMETOV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

"YOSH VOLONTYORLAR" OTRYADI

Namangan viloyati FVB, Yoshlar ishlari agentligi hamda Volontyorlar assotsiatsiyasi tomonidan Pop tumanidagi 1-kasb-hunar maktabida favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchi volontyorlar otryadlari tashkil etilishi yuzasidan tadbir tashkil etildi.

Shuningdek, ushbu maktabda tahsil olayotgan o'quvchilar orasidan volontyorlik otryadiga yoshlar saralab olindi. Otryad a'zolariga favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish, odamlar hayotini asrab qolish, birinchi yordam ko'rsatish va zilzila



bilan bog'liq vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy hamda nazariy bilimlar berilishi borasida aytib o'tildi.

K.MAMAJONOV,
Pop tumani 1-kasb-hunar maktabi direktori.

MUSOBAQAGA START BERILDI

Samarqand viloyati FVB hamda uning barcha shahar, tuman bo'limlari tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha boshqarma boshlig'i kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.

Unda viloyat FVB xodimlari tomonidan otaliqqa olingan va uyishmagan

yoshlardan iborat 5 ta jamoa g'oliblik uchun murossasiz va qizg'in bahs olib bordi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni "Sherqo'rg'on" mahallasi yoshlari jamoasi qo'lga kiritib, musobaqaning viloyat bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar estalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.



XAVFSIZLIK



"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ obyektlarida amalga oshirilgan tadbirlarda yong'inlarning oldini olish, yong'in, zilzila va shu kabi favqulodda holatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi. Har bir ishchi-xodimda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar hosil bo'lishi uchun amaliy mashg'ulotlar olib borilayapti. Bu kabi chora-tadbirlar albatta, xavfsizligimiz uchun xizmat qiladi.

Oybekjon XOLMATOV,
Farg'ona viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.



MUHM MASALA

Xiva shahar "Lolazor" mahallasi G'ovuk-ko'l atrofidagi turizm kompleksi, "Mevaston" va "Kalta minor" mahallalarida yangidan qurilayotgan zamonaviy tipdagi mehmonxonalar obyektlarida favqulodda vaziyatlar va yong'inlar sodir bo'lmasligini ta'minlashga harakat qilinmog'ada. Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, qurilish obyektlaridagi vaqtinchalik uychalarda tunda quruvchilar qoladigan joylarni xavfsizligini ta'minlash borasida bir qator profilaktik tushuntirishlar olib borilmog'ada.

Jamol ALIMOV,
Xiva shahar FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.



Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida o'tkazilgan QSHO'M davomida tibbiy saralash va tibbiy evakuatsiya ishlarining o'z vaqtida o'tkazilishi va malakali tibbiy yordamning o'z vaqtida berilishi jabrlanganlarning hayoti va salomatlik holatida tutgan o'rni yana bir marta sinovdan o'tkazildi.

Mashq davomida viloyat FVB, viloyat QYO jamiyati, shahar hokimligi, viloyat va shahar tibbiyot birlashmasi, shahar SEO va JSB, shahar veterinariya, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutasaddi xodimlari va ishchi-xizmatchilari ishtirok etdilar.

N.SAYFULLAYEV,
Samarqand viloyati FVB hodimi, leytenant.

TARG'IBOT

Toshkent shahar FVB va uning hududiy bo'limlari xodimlari tomonidan yozda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli noxush holatlarining oldini olish maqsadida targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilar bilan zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish, kattalarga xabar berish qoidalari nazariy tushuntirilgandan so'ng, shartli zilzila vaqtida binoni tark etish qiziqarli o'yin tarzida o'rgatilmogda.

Nazorat-profilaktika tadbirlari ko'p qavatli uylarning qurilish maydonlarida davom ettirilib, ishchi guruh tarkibida qurilish ishlarini belgilangan loyiha me'yorlari asosida olib borilishi, binolarning texnik mustahkamligini ta'minlash borasida mas'ullarga tushuntirishlar berilmogda.

R.DAVLYAYEV,
Prezident Administratsiyasi binosida YXTTE
1-bo'linmasi inspektori, mayor.

O'ta muhim va davlat ahamiyatiga molik, yong'in va portlash xavfi yuqori obyektlarda yong'in xavfsizligini mustahkamlash, ularning rahbarlari bilan yong'in-taktik o'quv va mashg'ulotlari, tushuntirish ishlarini tashkil etish eng samarali ishlar sirasiga kiradi.

TASHVIQOT

Bunday tadbirlarning muntazam o'tkazib borilishi esa obyektlar va aholi yashash sektorlarida yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Chunki ana shunday tadbirlar davomida ishchi-xizmatchilar va aholini yong'in, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha bilimlari oshiriladi.

Husan MAMAJONOV,
Toshkent shahar FVB EXTTEB kichik inspektori,
katta serjant.



RAHBAR VA YOSHLAR

Namangan viloyati FVBga birlashtirilgan 2-sektor hududidagi yoshlar bilan Chortoq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" o'tkazildi.

Uchrashuvda viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari polkovnik Oybek Toshmirov yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, harbiy vatanparvarlik va vatanga bo'lgan muhabbatni, sohaning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, FVVga qarashli "Temurbeklar" maktabi va Akademiyasida yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar to'g'risida gapirib, yoshlar tomonidan sohaga oid berilgan savollarga javob berib o'tdi.

Tadbir so'nggida iqtidorli yoshlarga esdalik uchun kitoblar topshirildi.

Farruxbek QOCHQOROV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
leytenant.



PROFILAKTIKA

Buxoro viloyati FVB "Asiya Trans Gaz" OYOXTTEB inspektorlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida obyekt hududida profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Obyekt ishchi-xizmatchilari bilan yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma va tushuntirish ishlarini olib borilib, yong'in o'chirish vositalari va yong'indan xabarlash moslamalari ko'rikdan o'tkazildi.

A.KAMOLOV,
Buxoro viloyati FVB "Asiya Trans Gaz" OYOXTTEB
inspektori.

HAMKORLIKDA



Namangan viloyati Chust tumanidagi "Paxta qabul qilish maskani" da hamkorlikda yong'in-o'chirish maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni tuman FV bo'limi yong'in qutqaruvchilari tomonidan bartaraf etish va daxldor tashkilotlar tomonidan taalluqligi yuzasidan belgilangan vazifalar amalga ko'rsatib berildi.

Mashg'ulotda korxonaning ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari, ishchi-xizmatchilar, yong'in-qutqaruv bo'linmalari boshliqlari hamda tuman hamkorlikdagi FVDT tashkilotlari ishtirok etdilar.

Oybek UMAROV,
Chust tumani FV bo'limi 25-yong'in-qutqaruv qism
boshlig'i, katta leytenant.

TAYYORGARLIK

Buxoro viloyati FVB shahar va tumanlar navbatchi dispetcherlari ishtirokida "O'ztelekom" va "112" yagona navbatchi dispetcherlik xizmati o'rnatilgan tashkilot xodimlari tomonidan "112" yagona markaz xizmatini ishlatish va ma'lumotlarini qabul qilish va uzatish bo'yicha amaliy o'quv seminari o'tkazildi.

R.AHMEDOV,
Tezkor boshqaruv markazi boshlig'i, podpolkovnik.

OBJEKTlarda XAVFSIZLIK QOIDALARI

Bino va inshootlarda ochiq olovli ishlar xavfsizlik talablari asosida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha javobgar shaxs tomonidan yozma ruxsatnoma berilgandagina amalga oshiriladi.

Olovli ishlarga yong'inga qarshi texnik yo'riqdan o'tgan va maxsus mutaxassisligini belgilovchi guvohnomasi hamda olovli ishlar uchun ishlashga maxsus taloni bo'lgan shaxslargagina ruxsat etiladi. Elektr payvandlash va gaz bilan bog'liq ishlar yonuvchan qurilish materiallaridan 5 metrli radiusda, portlash xavfi bo'lgan materiallar va qurilmalardan 10 metr uzoqlikda joylashtirilgan bo'lishi kerak. Yonuvchan, tez alanganuvchi mahsulotlardan himoyalangan

YO'RIQNOMALAR BERILDI



Shahrixon tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududida "Manzilli dastur" asosida qurilish ishlarini olib borilayotgan ijtimoiy soha obyektlaridagi ishchi-xodimlar bilan davra suhbatlari o'tkazilib, mazkur ish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini o'tkazilayapti. Xususan, tumandagi 17-ummumta'lim maktabida qurilish ishlarini olib borayotgan "Barqaror yo'llar 2002" MJCH ishchi-xodimlariga xavfsizlik va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma berilib, tushuntirish ishlarini olib borildi.

O.RAHMATOV,
Shahrixon tumani FV bo'limi katta inspektori, mayor.

TUSHINTIRISH ISHLARI



Namangan viloyati Davlatobod tumanida 25 ta umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli davlat tasarrufidagi MTTlar faoliyat yuritmoqda. Kuz-qish mavsumi oldidan tuman FV bo'limi davlat yong'in nazorati inspektorlari tomonidan, tumanda mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar va turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish masadida profilaktik tushuntirish ishlarini olib borilmogda.

Profilaktika davomida maskan xodimlariga zilzila, yong'in sodir bo'lganda tarbiyalanuvchilarni evakuatsiya qilish, maskanda mavjud birlamchi yong'in o'chirish vositalarini to'g'ri ishlata olish, elektr va gaz uskunalaridan to'g'ri foydalanish, nostandart, nosoz va qo'lbola qurilmalardan foydalanmaslik bo'yicha targ'ibot ishlarini o'tkazildi.

Ilhom AHMADALIYEV,
Davlatobod tumani FV bo'limi katta inspektori,
katta leytenant.

holda, yong'inga qarshi birlamchi o't o'chirish asbob-anjomlari bilan doimo ta'minlanishi zarur.

Shamol kuchi tezligi 6 ballga yetganda balandlikda payvandlash ishlarini bajarishga ruxsat etilmaydi. Bosim ostida har xil suyuqlik va yonuvchi mahsulotlari bo'lgan sig'im va quvurlarda yoki elektrotexnik qurilmalarga taalluqli joylarga apparatning ochiq alangasi bilan payvandlash, qirqish va isitish ishlarini bajarilishiga ruxsat berilmaydi.

Doimiy payvandlash ishlarini maxsus ajratilgan, yonmaydigan qurilish konstruksiyalari bilan ta'minlangan xonalarda olib borilishi shart.

O.RAJABOV,
Qashqadaryo viloyati FVB OYOXTTEB bosh
inspektori, kapitan.

6	F f	[f]	22	R r	[p]
7	G g	[r]	23	S s	[c]
8	G' g'	[f]	24	S' s'	[ш]
9	H h	[h]	25	C' c'	[ч]
10	I i	[i]		T t	[t]
11				U u	[y]
12				U' u'	[y]
13				V v	[b]
14				Y y	[ы]
15	M m	[m]		Z z	[z]
16	N n	[n]			

ҳаракати билан мамлакатимизнинг хорижий алоқалари жадал суръат билан ўсмоқда. Бу табиийки, ўзбек тилига бўлган қизиқишни кучайтиради, ўзбек тилини ўрганувчи хорижликлар сони ортади. Энг муҳими, бу жараён йиллар ўтган сайин кучайиб боради. Биз алифбо ислоҳоти тўғрисида ўйлаганимизда, изланганимизда, бу омилни ҳам назарда тутишимиз лозим. Токи, тилимиз билан танишган киши унинг бойлигини кўрсин, миллий алифбомиз нақадар пухта ва мукамал тузилганига амин бўлсин. Ёзуви лотинга асосланган халқларнинг аксари икки алифбодан фойдаланади.

Бугунги ахборот технологиялари асрида лотин ёзуви энг қулай ва самаралидир. Босма нашрларда ҳам матнда 10–15 фоиз жой тежалади. Ёзув масаласида халқаро стандартларга мослик даражаси ортади. Ҳатто, лотин ёзувидан фойдаланмайдиган тилларда сўзлашувчиларнинг кўпчилик қисмига ҳам лотин ёзуви таниш. 2000 йилда Туркменистон, 2001 йилда Озарбойжон лотинлаштириш жараёнини тўлиқ якунига етказди. Ҳатто ёши 50 дан ошганлар ҳам лотинчада бемалол ўқиб, ёза олишади. ОАВ, жамоатчилик, таълим, сиёсат, иқтисод боринки, энг қулай даражагача русийзабонларгача, ҳамма ўзини лотинда яхши ҳис қилмоқда. Ўзбек-кирилл алифбосигаги “ц” ҳарфи қатнашган сўзларни лотин ёзувига ўгириш қоидаси кўпдан-кўп муҳокамаларга сабаб бўлган. Қоидага мувофиқ, агар “ц” ҳарфи сўз ўртасида унлидан кейин келса, лотин ёзувида унинг ўрнига “ts” ҳарфлари, бошқа барча ҳолларда эса битта “s” ҳарфи ёзилади. Кирилл ёзувини қўллаб-қувватловчилар “цех”, “цирк” каби сўзлар туфайли шов-шув кўтаришди. Транслитерация қоидаларига биноан юқоридаги сўзлар “sex” ва “sirk” деб ёзилиши лозим. Аслида, бу ерда ҳеч қандай муаммо йўқ. Бу каби сўзларни ўзбек тилида ўзбекча товушларни талаффуз қилиб ўқиш ва ўзбекча тушуниш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 февралдаги “Лотин ёзувиге асосланган ўзбек алифбосига босқичма-босқич ўтишни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори давлат тилини янада ривожлантириш, унинг нуфузини ошириш бўйича бир қатор вазифаларни белгилаб берди. Улардан бири – лотин ёзувиге асосланган ўзбек алифбосини, имло қоидаларини янада такомиллаштириш ва янги ёзувга тўлиқ ўтишни таъминлаш, икки хил ёзувдан фойдаланиш тизимига барҳам бериш. Таълим муассасаларида ўқув жараёни лотин ёзувида давом эттирилса, ОАВ лотинлаштириш жараёнларини ёритиб, лотин ёзувини кенг тарғиб қилса, кутубхоналар фонди бу ёзувга тезкорлик билан ўгирилса, шунингдек, катта ёшдаги авлод ҳамда айрим ёшлар орасида лотин ёзувиге ижобий муносабатни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилса, бу мақсадга тез орада эришиш мумкин бўлади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ЛОТИН АЛИФБОСИГА АСОСЛАНГАН ЎЗБЕК ЁЗУВИГА ЎТИШ МУАММОЛАРИ ҲАМДА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ

Ёзув ҳақида гап кетганда яқин ўтмишизга бироз назар ташласак. 1989 йил 21 октябрда Ўзбекистон Республикасида ўзбек тилига давлат тили мақоми берилиши билан зиёлиларимиз томонидан лотин ёзувиге асосланган алифбога ўтиш таклиф қилинганди. Амалда бу бизни жаҳон ҳамжамиятига кенгроқ интеграцияга ўз тилимиз орқали киришимизда биринчи қадам бўлган эди. Лотин ёзуви бугунги кунда халқаро ҳамжамиятда энг кўп қўлланиладиган, энг йирик қўламдаги жаҳон ёзувиге айланган. Ушбу алифбога ўтиш масаласини ўтган асрнинг бошларида яшаб ижод қилган жадидлар ҳам кўтариб чиққан экан. Улар миллатнинг миллат сифатида шаклланиши, танилишида маълум қонун-қоидалар асосида тизимлаштирилган, маълум меъёрга келтирилган адабий тил зарурлигини англаб етганлар. Бошқа туркий халқларда бўлаётган лотинлаштириш ҳаракатига жадидлар ҳам қўшилган.

Мазкур алифбога асосланган ҳозирги ёзувимиз 1993 йил 2 сентябрда тасдиқланган. Ўтган чорак аср давомида янги алифбо борасида турли фикрлар билдирилди. Муҳокамалар оммавий ахборот воситалари, хусусан, интернетда бир кўтарилиб, бир пасайиб турибди. Археологлар қадимги туркий алифбони “Ўрхун-Енисей” ёзуви деб атайдилар. Унинг яратилиш даври эса 500 йиллар атрофи, деб белгиланади. Ундан ҳам қадимийроқ даврларда хоразмийлар ва сўғдлар ўз ёзувиге эга бўлган. Марказий Осиёда ислом дини тарқалгач, араб алифбоси жорий бўлди ва IX–X асрларга келиб, у барча маҳаллий ёзувлар ўрнини деярли эгаллади. 1920 йили алифбо ва имло ислоҳотини амалга ошириш учун махсус кенгаш тузилган. Кенгаш 1921 йил 5 январда 6 та унли ва 23 та ундошдан иборат алифбога ўтиш тўғрисида қарор

қабул қилади. Ўзбек алифбосидан “f” ҳарфи чиқариб ташланади.

Аммо алифбо устидаги баҳс тўхтамаган. Шу боис, 1921 йил январда махсус қурултой чақирилган. Машварат аҳли Фитрат таклифини ёқлаб, “Ўзбек тилида 23 та ундош ва 6 та унли бор” деган тўхтама келган. Бу алифбода энди “f” ва “ng” товушлари алоҳида ҳарфлар билан акс этган. Айни ислоҳотнинг сабаби иккита эди: биринчиси – мактабларда алифбони ўрганиш муддатини қисқартириш, савод чиқаришни энгиллаштириш; иккинчиси – босма ёзувни осонлаштириш, яъни матбаада литографиядан типографияга ўтиш, Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи айнан шу алифбода босилган эди. Қурултой қароридан сўнг баҳслар бирмунча сусайган, аммо барибир тўхтамаган.

Туркий халқлар тили ва адабиёти, жумладан, алифбо масаласи 1926 йил апрелда Бокуда чақирилган туркология қурултойининг кун тартибига “Турк миллатлари алифбосининг ислоҳоти” мавзуси билан киритилган. Бу даврга келиб араб алифбосидан лотин алифбосига ўтиш тарафдорлари тўлиқ устунликка эришган. Шунинг учун баҳс алифбо қандай ҳарфлардан ташкил топиши масаласи устида борган. Қурултойда барча туркий халқлар учун ягона алифбо тавсия этилган. Аммо тарих ҳукми ўзгача бўлган. Алифбо устида баҳс давом этди – энди у “Ўзбек тилида сингармонизм борми ёки йўқми?”, деган мавзуга кўчган. Элбек етакчилиги қилган бир тараф “сингармонизм ўзбек тилининг туб сифати, унинг бирдан-бир беағи, демак, у юз фоиз сақланиши керак”, деган позицияда туради. Элбек ҳатто унлилар сонини 12 тага етказишни ҳам таклиф қилади. Бошқа бир гуруҳ бунга қарши эди. Шоир Боту “Ўзбек тилига сингармонизм хос эмас”, деган

фикрни ёқлайди. Айниқса, ўзбек тили алифбоси, импоси ва грамматикасини имкон қадар жўнлаштириш тарафдори бўлган тилшунос Евгений Поливанов бу йўналишда қалпти иддаолар билан йўғрилган чиқиш қилади. Натижада, баҳс сиёсий тус олиб, сингармонизм тақдири қарши томон фойдасига ҳал бўлади.

1929 йил майда Самарқандда алифбога бағишланган пленум ўтказилиб, тўққиз унлиқдан олти унли ёзувга ўтилди, “ng” товуши учун киритилган махсус ҳарф олиб ташланди. Шу даврдан сингармонизм ўзбек алифбосига бегоналашди. Алишер Навоий “Муҳокамат ул-луғатайн” асарида ўзбек тилига унлилар хилма-хиллиги хос эканлигини қайд этган эди. Дунёнинг барча тилларида талаффузи бир-бирига яқин товушлар мавжуд бўлиб, бу ҳол ана шу тил фонетикасида қайд этилади. Алифбо ва имлонинг вазифаси – товушларни ёзувда акс эттиришдан иборат.

1993 йили яна лотин ёзувиге қайтилди. У қисман 1929 йилги алифбога яқин эди. Хусусан, “ng” товуши учун “ñ”, ҳатто сирғалувчи “j” учун “j”, “c” учун “s” ҳарфлари ҳамда диакритик белги (˘) жорий этилган. Шу билан бирга, кенг ва тор “o” товушлари “o” ва “õ” ҳарфлари билан фарқлангани ҳолда, кенг ва тор “u” товушлари учун бир ҳарф олинган. Орадан ҳеч қанча ўтмай янги алифбони ҳам тузатишга мажбур бўлинди. 1995 йили лотин алифбоси кескин ўзгартирилди: “s”, “j” ва “õ” ҳарфлари олиб ташланиб, “ç”, “ş”, “ñ” ҳарфлари “ch”, “sh”, “ng” жуфтликлари билан алмаштирилди. Бу алифбонинг биргина афзаллик томони – у компьютер клавиатурасига тўлиқ мослаштирилган эди. Бугунги гажетлар замонида бу афзалликнинг аҳамияти янада кучайди.

Давлатимиз раҳбарининг саъй-

Олимлар аниқлашчи, ҳеч бир сайёра ёки юлдузнинг Ерникига ўхшаш атмосфераси йўқ. Атмосфера-ни Ерни ўраб турган ва бир неча юз мил баландликка эга бўлган ҳаво океани сифатида тасаввур қилишимиз мумкин.

ЕР АТМОСФЕРАСИ НИМА?



Ҳаво океанининг бутун Ер юзидаги таркиби бир хил. У асосан, маълум бир газлардан таркиб топган бўлиб, уларнинг пропорцияси доимо бир хилдир. Уни тахминан, 78 фоизини азот, 21 фоизини кислород, қолган бир фоизини камдан-кам тилга олинадиган аргон, неон, гелий, криптон ва ксенон газлари ташкил этади.

Ер атмосфераси бир-биридан фарқ қиладиган қатламларга бўлинади. Баландлиги 16 км. бўлган куйи қатлам тропосферадир. Бу қатламда об-ҳаво шаклланади. Баландлиги 16 км.дан 48 км.гача бўлган қатлам стратосферадир.

Стратосферанинг ўртасида тахминан 20 – 25 км. баландликда Ердаги жонзотларни зарарли қисқа тўлқинлар нурланишидан сақлаб турадиган озон қатлами бор. Озон кислороднинг ўзига хос шаклидир, унинг молекуласи одатдаги икки ўрнига уч атомдан таркиб топади. Иссиқ озон қатлами бизни қуёшнинг ўта фаол ультрабинафша нурларидан асрайди. Унинг ёрдамисиз қуёш нурига чидаб бўлмайди. 100 км.дан юқоридаги қатлам ёки қатламлар ионосфера, деб аталади. Ионосфера қуёш электрлаган зарралардан иборат.

Ҳаво молекулалари доимий ҳаракатдадир. Атмосфера молекулалари бир-бири билан тўхтовсиз тўқнашиб турган, аммо бошқа ёқларга учиб кета олмайдиган шароитдагина мавжуд бўлиши мумкин. Юқорига кўтарилган сари ҳаво сийраклашиб боради. Пастдаги молекула тепадагиси билан тўқнашгач, яна орқага қайтиш эҳтимоли ниҳоятда кам. Шунинг учун ҳам молекулалар очиқ фазога чиқади ва атмосфера сийраклаша боради. Экзосфера деб аталувчи зонада атмосферадан юлқиниб чиқиб кетган молекулалар эркин ҳаракат қилади ва бу зона Ер юзасидан бир неча юз километр баландликдан бошланади.

ДУНЁНИНГ ЭНГ СОВУҚ ҲУДУДЛАРИ

Сайёрамизда шундай совуқ жойлар борки, уларнинг аҳолиси ҳатто ичимлик суви олиш учун музни эритишга мажбур бўлади. Шунга қарамасдан улар, албатта, кўчага чиқиш олдида музлаб қолмаслик учун қандай кийиниш ва хавфсиз ҳаракат қилишни аниқ билади.

Ёқутистоннинг беш юз минг киши яшайдиган бу қишлоғидаги январь ойининг ўртача ҳарорати 50 даража совуқни ташкил қилади. 1933 йилда бу ерда 67 даража совуқ бўлган экан. Шуни ҳам айтиш керакки, ўта совуқ иқлимли бу қишлоқ Шимолий кутб доирасидан жанубда жойлашган. Шу сабабли бу ердаги энг қисқа кун (22 декабрь) тонгдан кечгача бор-йўғи 4,5 соат, энг узун (22 июнь) кун эса 20,5 соат давом этади.

Шимолий Американинг континентал қисмидаги энг совуқ жой Канаданинг Юкон штати бўлиб, Аляскага олиб борувчи автомагистрал яқинидадир. Қишлоқнинг ўзи Уайт-ривер косасимон дарё водийсида жойлашган бўлиб, олтин талвасаси пайтида пайдо бўлган. Кейинчалик бу ерда мўйна савдогарлари ва маҳаллий аҳоли вакиллари яшаган. Январь ойида у ҳудудда термометр -60 даражача совуқни кўрсатиши мумкин, августда эса симоб устуни +5 даражадан юқорига кўтарилмайди. Бу ердаги энг паст ҳарорат 1947 йилнинг февраль ойида қайд этилиб, ўшанда 63 даража совуқ бўлган. Шаҳар аҳолиси азалдан кучли шамол ҳамроҳлигидаги бундай қаҳратон совуқларга ўрганиб қолган.

Америка Қўшма Штатларининг энг шимолий шаҳри ҳисобланган Уткиагвикда қуёш охириги марта ноябрь ойининг

АСТЕРОИДЛАР

Тициус ва Боде исмли олимлар турли вақтда Марс – Миррих билан Юпитер – Муштарий ўртасида қандайдир сайёра бўлиши керак, деган бир хулосага келишган. Чунки бу икки сайёра ўртасидаги масофада қандайдир очиқ жой бор эди. Шунинг учун бир неча мунажжимлар бу сайёрани излашга киришиб кетишган.



1801 йилда ҳақиқатан ҳам ўша жойда Церера деб ном олган сайёра топилган. Лекин унинг диаметри бор-йўғи 600 милдан иборат. Олимлар у кичик сайёралар гуруҳига мансуб бўлиши керак, деган қарорга келишган ва изланишларни давом эттиришган. Бироз вақт ўтгач, энг каттаси Церерадан икки марта кичик бўлган яна учта сайёра кашф этилган. Мунажжимлар бу тўрт сайёра қайсидир бир номаълум сайёра портлаши натижасида ҳосил бўлган, деган хулосага келишган. Аммо ўн беш йиллик муттасил изланишлардан сўнг бир мунажжим яна бир кичик сайёрани излаб топган ва изланишлар давом эттирилган.

1890 йилга келиб 300 та кичик сайёра топилди, 1890 ва 1927 йиллар оралиғида эса улардан яна 2000 таси кашф этилган. Асосан, Марс ва Юпитер ўртасидаги фазода қуёш атрофида айланадиган бу кичик сайёралар астероидлар номини олди.

Ҳисоб-китобларга қараганда, уларнинг сони 100 000 тага етади, улардан айримлари жуда кичик бўлгани учун топиш анча мушкул бўлган. Айримларининг ўлчами бир неча юз метр холос. Уларнинг умумий массаси Ер массасининг арзимас қисминигина ташкил этади.

Астероидларнинг пайдо бўлиши тўғрисидаги фаразга кўра, улар Юпитер йўлдоши портлаши натижасида ҳосил бўлган парчалардир.

иккинчи ярмида ботади ва икки ойдан ортиқ вақт давомида уфқдан кўринмайди. Маҳаллий аҳоли учун даража ташқарисидаги нол (0 °С)дан бироз юқори бўлган ҳарорат – ёзги сайрга чиқиш учун сабаб бўла олади. Уткиагвикда йилига атиги 2 – 3 ой совуқ бўлмайди ва июль ойидаги ёққан қор ҳеч кимни ажаблантирмайди. Доимий эсиб турадиган шамоллар вазиятни янада чуқурлаштириши сабабли, совуқларни енгиб ўтиш жуда қийин кечади. Маҳаллий аҳоли учун йилнинг ноябрдан апрелгача бўлган даврдаги 25 даража совуқ ҳаво оддий ҳодиса ва бу ойлarda термометр баъзан -50 даража совуқни кўрсатади.



Монголия пойтахти Улан-Батор Арктика доираси яқинида жойлашмаган бўлса-да, ўзининг ўта қаттиқ иқлимга эга ва ҳақли равишда сайёрадаги энг совуқ пойтахт ҳисобланади. Сибир антициклонлари, ҳар қайси соҳилгача юзлаб километр бўлган масофа, континентал ва субарктик чегарадаги қурғоқчил иқлим – жуда иссиқ, лекин жуда қисқа ёз ва жуда узоқ совуқ, қиш. Одатда тонг отгунга қадар ташқарида деярли 40 даража совуқ бўлади ва шамолнинг умуман йўқлиги, атрофдаги мавжуд музликлар, абадий аёз тупроқларнинг муздан тушишига имкон бермайди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба кунини чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри
таҳририят нуқтаи назаридан
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун - 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №165
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади - 9900 нусха